O'ZBEKISTONDA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI RIVOJLANISHI VA ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY FAOLIYATINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	995
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI	1002
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH KONTEKSTIDA TIJORAT FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANADIGAN VA RAQOBAT RIVOJLANGAN SOHALARDA DAVLAT MUASSASALARINI ISLOH QILISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	1006
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANI O'RGANISH VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH TAMOIYILLARI	1013
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
JIZZAX VILOYATIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI IQTISODIY TAHLILI	1018
Saloxitdinov Sherzod Farxodovich	
STRATEGIK TARMOQLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA JAHON TAJRIBASI.....	1024
Xushboqova Kamola Rustam qizi, Dilfuza Xamzayeva	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH	1029
Zaripova Sayohat Zafarovna	
INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	1034
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Sarvarbek Allayev Erkin ugli, Shavkat Asrolovich Ruziev	
YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY MADANIYATNING RIVOJLANISHI.....	1041
Qodirova Shahodat G'aybullayevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA SHARIAT TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN BANKLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI ("TRASTBANK" XAB MISOLIDA)	1048
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MEXANIZMLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	1055
Gulyamov Ulug'bek G'afurovich	
BUDJET TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZLASHTIRISHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	1059
Babayev Shavkat Bayramovich	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH MASALALARI	1067
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	



BOJXONA YIG'IMLARINING UNDIRUVCHANLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	1072
Sarmanov Orifjon Adiljonovich	
DAVLAT MOLIYASINI RAQAMLASHTIRISH VA FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	1078
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO BAHOLASH.....	1083
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	1088
Avazbek Jo'rayev	



BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH

Avazbek Jo'rayev

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida bank aktivlari samaradorligini oshirish omillari, tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish va joylashtirish jahon tajribasi, bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari bo'yicha mavjud qarashlar, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda real va nominal foiz stavkasi, xorijiy banklarda aktivlarning samaradorligini oshirishda bank balansi aktivlari tarkibida riskka tortilgan aktivlar ulushining ahamiyati, bankning mo'tadil kredit siyosatining banklarning xo'jalik subyektlari va aholini kreditlash sohasidagi faoliyatidagi ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bank aktivlari, tijorat banklari, riskka tortilgan aktivlar, kredit siyosati, foiz stavkasi, bank samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, kreditlash, bank balansi, investitsiya faoliyati.

Abstract. The article highlights the factors of increasing the efficiency of bank assets in a market economy, international experience in effective management and allocation of commercial bank assets, existing theoretical approaches to improving bank asset efficiency, the role of real and nominal interest rates in enhancing the efficiency of commercial bank assets, the importance of the share of risk-weighted assets in the balance sheet structure of foreign banks, as well as the significance of a moderate credit policy in lending activities to business entities and the population.

Key words: bank assets, commercial banks, risk-weighted assets, credit policy, interest rate, banking efficiency, financial stability, lending, bank balance, investment activity.

Аннотация. В статье освещены факторы повышения эффективности банковских активов в условиях рыночной экономики, мировой опыт эффективного управления и размещения активов коммерческих банков, существующие теоретические подходы к повышению эффективности банковских активов, роль реальной и номинальной процентной ставки в повышении эффективности активов коммерческих банков, значение доли риск-взвешенных активов в структуре балансовых активов зарубежных банков, а также значение умеренной кредитной политики банка в сфере кредитования хозяйствующих субъектов и населения.

Ключевые слова: банковские активы, коммерческие банки, риск-взвешенные активы, кредитная политика, процентная ставка, эффективность банков, финансовая устойчивость, кредитование, банковский баланс, инвестиционная деятельность.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning aktivlari samaradorligini oshirish muhim omillardan hisoblanib, bu jarayon bank faoliyatining riskka duchor bo'lishi oqibatida nafaqat aktivlardan daromad olish, balki mijozlar oldida majburiyatlarni bajara olmaslik muammosini hamda moliyaviy mablag'larni yo'qotish kabi zararlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Xususan, keyingi yillarda xalqaro darajada ko'radigan bo'lsak, jahonda ro'y berayotgan pandemiya, iqlim o'zgarishi, moliyaviy-iqtisodiy beqarorliklar tijorat banklari aktivlari tarkibida ishlamayotgan kreditlar ulushining ortishi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytirmoqda. Natijada, 2020-yilda jahonning 12 mamlakatida ushbu daraja 10 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil etib, San Marinoda 63,51%, Ukrainada 41%, Gretsiyada 26,98%, Qirg'izistonda 10,09% bo'lgan.¹

Fikrimizcha, jahon amaliyotida tijorat banklari aktivlarini samarali boshqarish va joylashtirish tajribasini o'rganish orqali O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida joriy etilishi foydadan holi bo'lmaydi, chunki bu borada mamlakatimiz tijorat banklarida ham keyingi yillarda ayrim dolzarb masalalar yig'ilib qolmoqda. Bundan ko'rinish

1 Non-performing loans as percent of all bank loans, 2020 - Country rankings. https://www.theglobaleconomy.com/rankings/nonperforming_loans/



turibdiki, xorij banklari aktivlarini samarali boshqarish tajribalarini o'rganish asosida ularning ayrim ijobiy jihatlari milliy bank tizimida joriy etish muhim masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy nazariyaning yirik namoyondalaridan biri hisoblangan A. Smit bank aktivlari samaradorligini oshirish, umuman moliya muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishga iqtisodiyotda mehnat taqsimotining mavjudligi asos bo'lib xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi. A. Smitning fikriga ko'ra, "...jamiyatda mehnat taqsimoti shunday bir iqtisodiy mexanizmki, kishilarni o'zaro manfaatdorligi asosida bir-biriga bog'lab turadi, bu ular o'rtasida moliyaviy va moddiy resurslarni ayirboshlash imkoniyatini beradi. Bu mexanizm bozor hisoblanadi."²

Bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy masalalari bo'yicha ayrim mavjud ta'limotlarda unga zid bo'lgan yo'nalishlar ham mavjud. Masalan, fransuz Pyer Jozef Prudon (1809–1865) banklarning foizsiz kredit berishi zarurligi to'g'risidagi ta'limotni yoqlab chiqqan³. Prudon bank krediti foizini mehnat bilan ishlab topilmaydi va foiz stavkalarini bekor qilish haqidagi ta'limotni ilgari suradi. Prudon pulning ko'p omilli funksiyalarni bajarishini e'tiborga olmagan holda, ishlab chiqaruvchi foizsiz kreditni oladigan bo'lsa, u ishlab chiqarish hajmini oshiradi va tovarlarning bahosi pasayishini ta'kidlaydi. Prudon ushbu ta'limotni amalga oshirish uchun ixtisoslashgan banklar tashkil etish, ushbu banklar tomonidan o'zining ta'sischilari uchun ta'minlanmagan to'lov vositalarini muomalaga chiqarish orqali foizsiz kredit berish haqidagi ta'limotni ilgari suradi. Ushbu loyihaning amaliyotga joriy etilishi, Prudonning nazariyasiga ko'ra, jamiyatda har bir kishi o'ziga maqbul bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar vujudga kelmasligini, hatto hukumatning boshqaruv apparatiga ham ehtiyoj qolmasligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, Prudon qayta taqsimlash haqidagi utopiyaning pulning muomala doirasiga ham joriy etish haqidagi ta'limotni ilgari suradi. Prudon ushbu ta'limotni 1849-yilda amaliyotga joriy etishga harakat qiladi, biroq ushbu harakat hech qanday samara bermadi.


Amerikalik iqtisodchi I. Fisher kredit foizi haqidagi ta'limotni ilgari surgan ikkita guruh iqtisodiy nazariyachilarning qarashlarini o'zaro umumlashtirish asosida yangicha ta'limotni ilgari surgan. Uning ta'limotida pul kapitalining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xossasiga ega ekanligi, shu bois ham tadbirkor uni "iste'mol qilish"ga kuchli ehtiyoj sezishi ta'kidlanadi. Buning uchun kredit taklifini shakllantiruvchi tomon moliyaviy mablag'larga kuchli zaruriyat sezishi, ushbu zaruriyat uy xo'jaliklari va kompaniyalarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari hisobidan qondirilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tijorat banklari aktivlari samaradorligiga oid milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, Markaziy bank statistik ma'lumotlari hamda xalqaro bank amaliyoti materiallaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy va tarkibiy tahlil, statistik guruhlash, induksiya va deduksiya, koeffitsiyent hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilib, bank aktivlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank tomonidan taklif etilayotgan foiz stavkalari uy xo'jaligi va kompaniyalarning manfaatini qondirsa, ular vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini qo'shimcha foyda olish maqsadida moliya bozorlarida "sotadi", ya'ni jamg'arma sifatida joylashtiradi. Natijada moliya bozorlarida, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarida talab va taklif o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ushbu moliyaviy resursning bozor bahosi, ya'ni bank krediti foizining shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu jarayon quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Jamg'arma va investitsiya o'rtasida o'zaro bog'liqlik asosida foiz stavkasini vujudga kelishi⁴

² Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov. /Analogiya ekonomicheskoy klassiki. - T. 2. -M.: 1993, -S. 34.

³ Yusupov Yu.B. Stanovleniye i razvitiye ekonomicheskoy nauki. -T.: 1997, -S. 60.

⁴ Manba: muallif ishlanmasi



1-rasmdan, ya'ni "Fisher samarasi" deya nom olgan chizmadan ko'rinib turibdiki, jamg'arma va investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda foiz stavkasi "tabiiy" darajada tebranadi. Agar muomalada pul massasi ortsa, dastlab foiz stavkasi tushadi, keyinchalik tovarlar bahosi ko'tarilishi natijasida foiz stavkasi yanada ortadi. Shuningdek, Fisher nominal va real foiz stavkalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda quyidagi tenglikdan foydalanish samarali ekanligini ta'kidlaydi.

Bunga ko'ra:

$$NFS = RFS + ID$$

bu yerda:

NFS – nominal foiz stavkasi;

RFS – real foiz stavkasi;

ID – inflyatsiya darajasi.

I. Fisherning fikriga ko'ra, nominal va real foiz stavkasi o'rtasidagi muvozanat inflyatsiya darajasi yordamida vujudga keladi, kredit beruvchi va kredit oluvchi kreditning real qiymati pasayishidan manfaatdor bo'ladi. Chunki iqtisodiyotda pul massasining ortishi mos ravishda baholarning o'sishiga olib keladi, bu o'z navbatida inflyatsiya darajasining oshishiga, demak, nominal foiz stavkasining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, aytish mumkinki, uzoq muddatli davrda real foiz stavkasining o'zgarishi pul massasi va baholarning o'sishiga bog'liq bo'lmaydi⁵.

Bizning nazarimizda, I. Fisherning bank aktivlari samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi foiz stavkalari xususidagi ta'limoti muhim ahamiyat kasb etib, ushbu ta'limot iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining to'liq amal qilgan sharoitida namoyon bo'ladi. Buning uchun iqtisodiyotda pul massasi va tovar massasi o'rtasidagi nisbat, ya'ni monetizatsiya koeffitsiyenti xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan darajada bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu daraja o'tish davri mamlakatlarida YAIMga nisbatan 60 foiz atrofida bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday sharoitda muomalada pul taklifi talabga nisbatan past bo'lishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarning bank kreditlariga bo'lgan ehtiyoji to'liq ta'minlanmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda real va nominal foiz stavkasi muhim iqtisodiy kategoriyalardan hisoblanadi. Real foiz stavkasi aholi va bank mijozlarining investitsiya hajmiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Klassik va neoklassik maktab vakillari hisoblangan F. Kene, A. Smit, A. Marshall, J. S. Mill, J. Sey, L. Valras, V. Pareto va boshqalar foiz stavkalari bozorning asosiy mexanizmlari hisoblangan talab va taklif asosida tartibga solib turiladi, degan g'oyani ilgari surganlar. Ular tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda Markaziy bankning ishtirokini inkor etadilar.

Iqtisodiy nazariyada tijorat banklari aktivlari samaradorligiga inflyatsiyaning ta'siri xususida qator ta'limotlar ilgari surilgan. Xususan, Birinchi jahon urushida ishtirok etgan mamlakatlarda juda katta miqdorda ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilishi inflyatsiya darajasining oshib ketishiga olib keldi.

Angliya iqtisodiy nazariyachilari A. Pigou, Dj. X. Robertson va Dj. M. Keynslar inflyatsiya sharoitida bank aktivlari samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi holatlarni e'tiborga olish lozimligini ta'kidlaydilar. Birinchidan, Markaziy bankning qayta moliyalash va majburiy zaxira stavkasini oshirish orqali muomaladagi pul massasi hajmini pasaytirish. Ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyozlar berish.

Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter banklarning kreditlari iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi mexanizm ekanligini ta'kidlaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, jamiyatda yuz berayotgan barcha innovatsion va texnik rivojlanishlarning asosida bank krediti yotadi. Y. Shumpeter banklar jamg'armani investitsiyaga aylantiruvchi oddiy moliyaviy muassasa emas, balki ular iqtisodiy rivojlanishning faol yaratuvchilari hisoblanadi, deya ta'kidlaydi⁶. Shu bilan birga, Y. Shumpeter o'zining nazariy qarashlarida banklarni iqtisodiyotda raqobatni vujudga keltiruvchi bo'g'in sifatida qaraydi. Kredit emissiyasi, uning fikricha, birinchi navbatda iqtisodiy resurslarga bo'lgan talabni va ularning bahosini oshiradi, chunki tadbirkorda bank krediti hisobidan iqtisodiy resurslarni sotib olish imkoniyati ortadi. Bu jarayon bir jihatdan samarasiz faoliyat yuritayotgan korxonalarining bankrot bo'lishiga olib kelsa, ikkinchi jihatdan innovatsiya va novatorlikni joriy etgan tadbirkorlar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy nazariyachilarning ta'limotiga ko'ra, har bir bank o'zining foydasini oshirish bo'yicha egoist hisoblanadi, banklar moliya bozorlarida foydasini oshirishga bo'lgan turlicha strategiyalarni amalga oshiradi. Bu jarayonda barcha bank ham o'zining mo'ljaldagi iqtisodiy manfaatdorligiga erisha olmaydi, bu bank aktivlarini joylashtirish va ularni samarali boshqarishga qator omillarning ta'siri mavjudligi bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tijorat banklari aktivlari sifatini oshirishga bag'ishlangan nazariy va amaliy asarlar hamda ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, ekonometrik tahlil, sintez va koeffitsiyent metodlaridan foydalanish tegishli ishlanmalar, tavsiyalar va xulosalarni shakllantirish imkoniyatini berdi.


5 Yusupov Yu.B. Stanovleniye i razvitiye ekonomicheskoy nauki. –T.: 1997, -S. 96.

6 Schumpeter J. History of Economic Analysis. New York. 1954, 256 p.



Xorijiy banklarda aktivlarning samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor bank balansini aktivlari tarkibida riskka tortilgan aktivlar ulushining hajmini oshirishga qaratiladi. Chunki banklarning riskka tortilgan aktivlari bank uchun turli darajadagi yo'qotish xavfi bilan bog'liq bo'lsa-da, banklarga yuqori miqdorda daromad olish imkoniyatini beradi. Bankning riskka tortilgan aktivlari tarkibiga qisqa va uzoq muddatga berilgan kreditlar, davlat va kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar, shuningdek, faktoring, trast, forfeyting, lizing va kredit-ijara operatsiyalarini kiritish mumkin.

Xorijiy banklarda ushbu aktivlar risk darajasiga qarab turli toifalarga bo'linadi. Ta'kidlash joizki, bank aktivlarining risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular bo'yicha olinadigan daromadlar miqdori ham shu darajada yuqori bo'ladi. Ularning samaradorligini belgilovchi turlicha mezonlar qo'llaniladi. Quyidagi rasmda xorijiy mamlakatlar aktivlari samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Xorijiy banklarda aktivlar samaradorligini belgilovchi mezonlar⁷

2-rasmda rivojlangan xorijiy banklarda aktivlar samaradorligiga baho berishda qo'llaniladigan asosiy mezonlar keltirilgan. Rasmdan bank aktivlari samaradorligini belgilashda asosiy e'tibor aktivlarning foydaliligi koeffitsiyentiga qaratilganligi va ushbu koeffitsiyent muhim mezonlardan biri ekanligi ko'rinib turibdi. Ushbu koeffitsiyent orqali bank aktivlarining daromadlilik darajasi, ya'ni bank aktivlarining qanday qismi daromad keltirishi aniqlanadi.

Ma'lumki, tijorat banklari resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan jalb etilgan mablag'larning qanday qismi aktiv operatsiyalarga, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, riskli aktivlarga joylashtirilganligi muhim hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan muddatli depozitlarning 75 foizdan yuqori qismi kreditlarga joylashtirilgan bo'lsa, bu bank tomonidan agressiv kredit siyosati amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi, agar ushbu ko'rsatkich 65 foizdan past bo'lsa, bankning mo'tadil kredit siyosatini amalga oshirayotganligini anglatadi.

Bankning riskli aktivlari muddatlar bo'yicha joylashtirilishi ham aktivlar samaradorligiga bevosita ta'sir qiladigan omillardan hisoblanadi. Shu jihatdan, xorijiy banklarda riskli aktivlarning qanday ulushi uzoq muddatli aktivlarga, qanday qismi qisqa muddatli aktivlarga joylashtirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining aktivlar holatiga baho berganda standart reyting hisoblangan CAMEL tizimidan juda keng foydalaniladi. Bunda C — capital (kapital), A — assets (aktivlar), M — management (boshqaruv), E — earnings (daromadlilik), L — liquidity (likvidlik).

Kapitalga baho berganda rentabellik darajasi e'tiborga olinadi. Bunda foydaning bank o'z kapitalining o'rtacha ko'rsatkichiga nisbati ko'rinishida hisoblanadi. AQSH banklarida ushbu ko'rsatkich 13–16 foizdan iborat bo'lsa, mo'tadil daraja hisoblanadi.

Banklarda CAMEL tizimidan foydalanganda tijorat banklari faoliyati besh balli tizim asosida baholanadi. Yuqori barqarorlik darajasiga ega bo'lgan banklarga bir baho beriladi, moliyaviy jihatdan bankrotlik holatida turgan banklarga 5 ball beriladi. CAMEL tizimida asosiy e'tibor banklar kapitalining yetarliligi va bank aktivlari tarkibida riskli aktivlar ulushiga qaratiladi. Bank kapitalini baholashda riskli aktivlarning hajmi e'tiborga olinadi.

⁷ Uktamova N.N. The Problems of Increasing the Income and Quality of Assets of Commercial Banks //International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology Volume. 9: Issue. XII. December 2021 Issn: 2321-9653.



Tahlillar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy banklar amaliyotida bank aktivlari samaradorligini aniqlash mikro va makro darajada amalga oshiriladi. Bank aktivlari samaradorligini mikro darajada aniqlash banklarning aksiyadorlari, omonatchilari va investorlari manfaati uchun xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda Xitoyning yirik tijorat banki hisoblangan Sanoat-tijorat banki (Industrial and Commercial Bank of China) aktivlari daromadlilik darajasini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval. Xitoyning Sanoat-tijorat banki⁸ (1-yanvar holatiga, foiz hisobida ulushi)

Balans moddalari	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Kreditlar (4,45%)	57,7	58,7	58,8	56,7	57,7
Investitsiya (3,6%)	21,9	22	22,7	20	21,9
Markaziy bankka talablar (1,55%)	13,4	12,7	11	13,4	13,4
Boshqa banklarga talablar (3,12%)	7	6,5	7,5	7	7
Daromadli aktivlar jami	94,1	93,2	92	93,2	91,4
Daromadsiz aktivlar jami	7,2	8,3	9,5	8,1	10,2
Ehtimoliy yo'qotishlarga zaxira	-1,3	-1,5	-1,6	-1,3	-1,6
Jami aktivlar	100	100	99,9	100	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xitoyning Sanoat-tijorat banki aktivlari daromad olish nuqtayi nazaridan ham, likvidlilik nuqtayi nazaridan ham o'ta samarali joylashtirilgan, deyishimiz mumkin. Chunki tahlil etilayotgan davr mobaynida riskli aktivlar hisoblangan kreditlarga yo'naltirilgan aktivlarning o'rtacha ulushi 57,92 foizni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, bankning investitsiyalarga yo'naltirgan mablag'larining o'rtacha ulushi 2017–2021-yillarning 1-yanvar holatiga ko'ra 21,7 foizdan iborat bo'lgan. Ushbu holat bankning barqaror daromad olish imkoniyatini berish bilan birga, bankning likvid mablag'larga ehtiyoji yuqori bo'lganda uni qoplash imkoniyatini ham beradi, chunki investitsiyalar tarkibidagi yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar qimmatli qog'ozlar bozorida tez sotilishi natijasida osonlik bilan pul mablag'lariga aylantirilishi mumkin.

Bizning nazarimizda, Xitoy tijorat banklari tomonidan aktivlardan samarali foydalanish bo'yicha joriy etilgan amaliyotni mamlakatimiz tijorat banklarida ham joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususan, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlari bo'yicha yillik 1,55 foiz to'lov amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Bunday holatda tijorat banklari likvidlik bilan bog'liq risklarni vakillik hisobvaraqlarida ma'lum darajadagi mablag'larni saqlash hisobiga hal etish barobarida ma'lum darajada undan daromad olishi aktivlarni samarali joylashtirishda ijobiy rol o'ynaydi (2-jadval).

2-jadval. Rossiya Sberbankining konsolidatsiyalashgan balans hisoboti⁹ (1-yanvar holatiga, foiz hisobida ulushi)

Balans moddalari	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Pul mablag'lari va ekvivalenti	8,5	6,7	7	8,5	6,5
MB majburiy zaxira	1,6	0,7	0,8	1,2	0,9
MB mablag'lar	4,9	4,6	3,6	4,6	5,2
Kreditlar	68,2	62,8	68	64	66
Qimmatli qog'ozlar	11,2	11	14	12	13,5
Moliya instrumentlar, REPO	1	1	0,6	0,9	0,8
Moliya instrumentlarga (hosilaviy) talablar	0,5	0,6	0,6	1	0,9
Kechiktirilgan soliqlar	0,1	0,1	0	0	0
Asosiy vositalar	1,9	1,9	2,3	3,8	3,2
Sotishga mo'ljallangan aktivlar	0	8,2	0	0	0
Boshqa aktivlar	2,1	2,5	3	4	3
Jami aktivlari	100	100,1	99,9	100	100

8 "Industrial and Commercial Bank of China Ltd" ning yillik hisoboti asosida muallif tomonidan tuzildi <http://www.icbc-ltd.com/ICBCLtd/Investor%20Relations/Financial%20Information/Financial%20Reports/>

9 Rossiya Sberbanki hisoboti asosida muallif tomonidan tuzildi https://www.sberbank.com/common/img/uploaded/files/info/ifrs2020/sberbank_ifrs_2021_rus.pdf



Yuqoridagi jadvalda Rossiyaning yirik banki hisoblangan Sberbankning aktivlari tarkibi va ulushi haqida 2017–2021-yillarning 1-yanvar holatiga ma'lumotlar keltirilgan. Ta'kidlash joizki, Rossiya Sberbanki mamlakatdagi yirik bank hisoblanib, 51 foiz aksiyalari davlat hisobiga to'g'ri keladi. Uning mamlakat bank xizmatlari bozorida ulushi 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra korporativ kreditlar bo'yicha 31,9%, chakana kreditlar bo'yicha 42,6% va depozitlarni jalb qilish bo'yicha 45,2 foizni tashkil etadi. Bank 102,3 milliondan ortiq jismoniy va 3 milliondan ortiq korporativ mijozlarga ega.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bankning aktivlari tarkibida asosiy daromad keltiradigan aktivlar kreditlar va investitsiyalar bo'lib, ularning mos ravishdagi o'rtacha ulushi 2017–2021-yillarning 1-yanvar holatiga ko'ra mos ravishda 65,8 va 12,34 foizni tashkil etgan. Aytish mumkinki, bankning aktivlari daromad keltirish va likvidlik nuqtayi nazaridan o'ta samarali joylashtirilgan bo'lib, bu uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, mijozlar oldidagi majburiyatlarni ham to'liq va to'xtovsiz bajarish imkoniyatini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish bo'yicha xorij tajribasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, tahlil va tadqiqot qilish natijasida quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Iqtisodiy nazariyachilarning ta'limotiga ko'ra, har bir bank o'zining foydasini oshirish bo'yicha egoist hisoblanadi, banklar moliya bozorlarida o'z foydasini oshirishga bo'lgan turlicha strategiyalarni amalga oshiradi.

Iqtisodiy nazariyachilarning namoyandalaridan biri, fransuz P. J. Prudon banklarning foizsiz kredit berishi zarurligi to'g'risidagi ta'limotni yoqlab chiqqan. Uning ushbu ta'limoti banklar aktivlari samaradorligini oshirish doirasidagi ta'limotlarga zid bo'lib, amaliyotda o'zining ijobiy natijasini topmagan.

I. Fisher kredit foizi haqidagi ikki xil yo'nalishdagi ta'limot asosida yangicha ta'limotni ilgari surgan. U pul kapitalining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xossasiga ega ekanligini ta'kidlab, shu bois ham tadbirkor uni "iste'mol qilish"ga kuchli ehtiyoj sezishini va, albatta, bu jarayon ma'lum munosabatlar asosida, ya'ni foiz stavkasi orqali tartibga solinishini ta'kidlaydi. Fisher nominal va real foiz stavkasi o'rtasidagi muvozanat inflyatsiya darajasi yordamida vujudga kelishini, kredit beruvchi va kredit oluvchi kreditning real qiymati pasayishidan manfaatdor ekanligini qayd etadi.

Bizning nazarimizda, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishda real va nominal foiz stavkasi muhim iqtisodiy kategoriyalardan hisoblanadi. Real foiz stavkasi aholi va bank mijozlarining investitsiya hajmiga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

Klassik va neoklassik maktab vakillari hisoblangan F. Kene, A. Smit, A. Marshall, J. S. Mill, J. Sey, L. Valras, V. Pareto va boshqalar foiz stavkalari bozorning asosiy mexanizmlari hisoblangan talab va taklif asosida tartibga solinadi, degan g'oyani ilgari surganlar. Ular tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda Markaziy bankning ishtirokini inkor etadilar. Neoklassiklar moliya bozorida jamg'arma pul taklifi sifatida maydonga chiqadi, investitsiya esa pulga bo'lgan talabni yuzaga keltiradi, deb hisoblaydilar. Pulning bahosi esa foiz stavkasi hisoblanadi.

Avstriya nazariy iqtisodchisi Y. Shumpeter banklarning kreditlari iqtisodiyotni harakatga keltirishini, jamiyatda yuz berayotgan barcha innovatsion va texnik rivojlanishlarning asosida bank krediti yotishini ta'kidlaydi.

Xorijiy banklarda aktivlar samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor bank balansi aktivlari tarkibida riskka tortilgan aktivlar hajmini oshirishga qaratiladi. Masalan, xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan muddatli depozitlarning 75 foizdan yuqori qismi kreditlarga joylashtirilgan bo'lsa, bu bank tomonidan agressiv kredit siyosati amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Agar ushbu ko'rsatkich 65 foizdan past bo'lsa, bankning mo'tadil kredit siyosatini amalga oshirayotganligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Наука, 1993. – 572 с.
2. Юсупов Ю.Б. Становление и развитие экономической науки. – Т.: Фан, 1997. – 240 с.
3. Schumpeter J. History of Economic Analysis. – New York: Oxford University Press, 1954. – 256 p.
4. Fisher I. The Theory of Interest. – New York: Macmillan, 1930. – 566 p.
5. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 472 p.
6. Uktamova N.N. The Problems of Increasing the Income and Quality of Assets of Commercial Banks // International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology. – 2021. – Vol. 9. – Issue XII. – P. 1450–1455.
7. Non-performing loans as percent of all bank loans, 2020 – Country rankings. https://www.theglobaleconomy.com/rankings/nonperforming_loans/
8. Industrial and Commercial Bank of China Ltd. Annual Reports. <https://www.icbc-ltd.com/ICBCLtd/Investor%20Relations/Financial%20Information/Financial%20Reports/>
9. Сбербанк России. Консолидированная финансовая отчетность. https://www.sberbank.com/common/img/uploaded/files/info/ifrs2020/sberbank_ifrs_je2021_rus.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>